

4. Uvatov U. Buyuk allomalar. T. Yangi avlod. 2010
5. K.D.Alimova. Til bilish dunyoni bilishdir. SCIENCE AND EDUCATION. SCIENTIFIC JOURNAL ISSN 2181-0842. VOLUME 3, ISSUE 4 734 -737 betlar.
6. K.D. Alimova. Zamonaviy texnologiyalardan ta'lim jarayonida foydalanish. —INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING 2022/5| Page No.: 57-61 betlar.
7. K.D.Alimova. —Interviews of in uzbeklanguage problems and objectives|. Internatsional journal on integrated Education. Indoneziya 2020 yil. 88-90 betlar.
8. K.D.Alimova. —O_zbek tilida sitologiya terminlarining muammolari va vazifalaril. Namangan davlat ilmiy axborotnomasi. 2021 yil 1 son. 203-206 betlar

JADIDLAR INSONPARVARLIK VA MA'RIFATPARVARLIK G'OYA VA QARASHLARINING

YOSHLAR TA'LIM VA TARBIYASIDAGI O'RNI

Egamov Yusufboy Ergashbek o'g'li

Urganch davlat pedagogika instituti Filologiya va tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadidchilik harakatining vujudga kelishi, jadidchilik harakati namoyondalarining g'oyalari va bu g'oya va qarashlarning yosh avlodning ta'lim-tarbiyasidagi o'rni va ro'li hamda hozirgi davrdagi ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Jadidchilik harakati, ilm-fan, yangi usul maktablari, ta'lim, dunyoqarash, yoshlar, yoshlar tarbiyasi.

XIX asr o'rtalarida Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo xonliklarining bosib olinishi ushbu hududning tanazzulga yuz tutishiga, jahonning rivojlangan davlatlaridan juda ko'p sohalarda orqada qolib ketishiga, milliy qadriyatlar va urf-odatlarimiz toptalishiga olib keldi. Ilm-fan, maorif sohasida ham imperiya manfaatlaridan kelib chiqib, mahalliy aholini savodsizlikda, qoloqlikda tutib turishga qaratilgan siyosat olib borildi.

Mahalliy aholining aksariyat qismining ongida milliy o'zlikni saqlab qolish, madaniyatimizni asrash va xalqni ma'rifatli qilish g'oyalari saqlanib turar edi. O'rta Osiyoga nisbatan Rossiya imperiyasining harbiy jihatdan ustun ekanligi mahalliy aholining ochiqdan-ochiq kurashishiga imkon bermadi. SHuning uchun ham millatimiz, xalqimiz hayotiga befarq bo'lmagan kishilar, ayniqsa, ziyoli toifa vakillari millatni qoloqlikdan qutqaruvchi, ozodlikka eltuvchi yo'l sifatida xalqni ma'rifatli,

ilmli qilish deya hisobladilar. Ziyoli toifa vakillarining jamiyatni yangilash va isloh qilishga, millatni ma'rifatli va ilmli qilishga qilgan sa'y-harakatlari jadidchilik nomi bilan maydonga chiqdi.

”XIX asr ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotda so'nggi va keyingi yuz yillikning boshlanish davri bo'lib, g'oyaviy-nazariy va mafkuraviy qarashlarning shakllanish xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Jadidlar harakati vujudga kelguniga qadar Turkistonda turli ma'naviy-g'oyaviy va mafkuraviy oqimlar qadimchilar, islohotchilar, bedilchilar, mashrabxonlar, shuningdek, Markaziy Osiyo, umuman turkiy xalqlarga taalluqli bo'lgan tafakkurning turli shakllari, ijtimoiy-falsafiy mazmun va yo'nalishga ega bo'lgan ma'rifiy ta'limotlar va nazariyalar mavjud edi“ [1].

Turkistonni o'rta asrchilik, feodal qoloqlik va xurofotlardan ozod qilish, turkiy tillarga davlat tili maqomini berish, xalqni, millatni taraqqiyot yo'liga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, ozod va farovon jamiyat qurish, xalqni, aholining barcha toifa vakillarini ilmli va ma'rifatli qilish va boshqalar jadidchilik harakati namoyondalarining asosiy g'oya va maqsadlaridan edi.

Jadidlar xalqni ma'rifatli, ilmli qilish, o'z g'oya va maqsadlarini amalga oshirish uchun bir qator ishlarni amalga oshirdilar. Xususan, xalqni o'qitish uchun yangi usul maktablari yaratildi, jadidlar millatni ma'rifatli qilishga undaydigan va da'vat qiladigan asarlar va darsliklar yaratdilar, shu asarlarni teatr sahnalarida xalqimizga namoyish qildilar, gazeta-jurnallar nashr qilindi, turli xil madaniy-ma'rifiy kechalarni tashkil qildilar, faol targ'ibot ishlarini olib bordilar.

Mahmudxo'ja Behbudiy O'rta Osiyo jadidchilikining otasi sifatida qaralsa, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Abduqodir SHakuriy, Is'hoqxon Ibrat, Bobooxun Salimov, Polvonniyoz hoji Yusupov, Obidjon Mahmudov, Fayzulla Xo'jayev va boshqa ziyolilar jadidchilik harakatining yirik namoyondalari edilar.

Millatni, o'sib kelayotgan yosh avlodni ilm-ma'rifatga undovchi, ularning tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi asarlar sirasiga Mahmudxo'ja Behbudiyning ”Padarkush“ dramasini, ”Yoshlarni tarbiyalash“ asarini, Abdulla Avloniyning ”Turkiy Guliston yoxud axloq“ asarini, Munavvarqori Abdurashidxonovning ”Adibi avval“, ”Adibi soniy“, ”Yer yuzi“ kabi darsliklarini, Abdulla Qodiriyning romanlarini, Abdurauf Fitratning ”Madaniyat“, ”Tarbiyaga oid maslahatlar“ va boshqa bir qator asarlarni kiritish mumkin. Jadidlarning asarlarida umumiy ravishda yoshlarni faqat ilm olish bilan cheklamasdan, ularni axloqiy va ma'naviy jihatdan ham tarbiyalash, jamiyatga foydali, axloqli shaxslar etib shakllantirish maqsadi ko'zda tutilgan. Jadidlar ta'lim va tarbiyani bir butun jarayon sifatida ko'rganlar va yoshlarni kelajakda muvaffaqiyatli, axloqli va ilmli shaxslar qilib tarbiyalashni asosiy maqsad

deb bilganlar. Ularning gʻoyalari yangi maktab tizimida bilim va axloqni birlashtirish, yoshlarni zamonaviy dunyoqarashga ega qilib tarbiyalashga qaratilgan. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Turkistondagi jadidlarning ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlari eng avvalo millat yoshlarini tarbiyalash va yangicha koʻrinishdagi taʼlim tizimidan foydalanishni maqsad qilgan edi. Dastlab xususiy jadid maktablarini ochib yoshlarga taʼlim bera boshlangan boʻlsa, keyinchalik jadid maktablari shakllanishi keng quloch yozib bordi. Mintaqaning turli hududlarida oʻziga xos tarzda bunday maktablar ochila boshladi.

Turkiston jadidlari chor hukumati istibdodidan qoloq ahvolga tushib qolgan mahalliy aholini, jumladan, oʻsib kelayotgan yoshlarni ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maʼrifiy turmushini, ong-saviyasini koʻtarish, taraqqiy ettirish maqsadida juda katta madaniy ishlarni olib bordilar. Mahmudxoja Behbudiy taʼkidlaganidek, “Har bir mamlakatda islohot va madaniyat asbobigʻa tasavvul (vosita) va tashabbus etmoqlik harakati u mamlakatning yoshlari tarafidan zuhur eta boshlagani kabi, bizning Turkistonda ham madaniyat eshigi manzalasida boʻlgan maktabi ibtidoiy ila intiboh va islohot jarchisi boʻlgan milliy matbuot qayratlu yoshlarning harakati maorif parvaronlarini soyasida vujudga keldi” [2].

1910-yili oʻlkadagi barcha jadid maktablari shoʻro hukumati tomonidan majburiy ravishda yopildi. Ammo bu maktablarning yopilishi jadidlik harakatini susaytirmadi, aksincha, yanada rivojlanishi uchun xizmat qildi.

Jadidlar yosh avlodning taʼlim olishi bilan bir qatorda, namunali xulq va tarbiyali boʻlishi masalasiga ham alohida eʼtibor qaratganlar. Xususan, maʼrifatparvar Abdulla Avloniy tarbiya masalasiga toʻxtalar ekan “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” deya taʼkidlaydi. Bu fikrlar naqadar toʻgʻri va dolzarb ekanligini bugun, har qachongidan ham yaxshi anglayapmiz. Taʼlimni tarbiyadan, tarbiyani esa taʼlimdan ajratib boʻlmaydigan hozirgi davrda tarbiya haqiqatan hayot-mamot masalasiga aylanmoqda.

Oʻrta Osiyo jadidlarining otasi Mahmudxoʻja Behbudiy oʻz asarlari orqali xalqni maʼrifatli boʻlishiga, yosh-avlodni esa yaxshi taʼlim va tarbiya olishiga daʼvat qilgan. Xususan, “Padarkush” dramasi voqealarini tahlil qilsak. Asarda “boy” obrazi orqali tasvirlangan kishi oʻz farzandini ilm olishga undamaydi, aksincha, ziyoli insonlarning maslahatlariga eʼtiroz qilganicha farzandini oʻqitmaydi. “Farzandim tijoratimni davom qildirsa boʻldi, buning uchun taʼlim va tarbiya zarur emas” degan salbiy fikrlardan aslo voz kechmaydi. Farzandi ham oʻqimagandan soʻng tarbiyasiz va ilmsiz bola bola boʻlib ulgʻayadi va asar oxirida hatto oʻz otasining qotiligi aylanadi. Asar orqali Behbudiy odamlarga “yashirin murojaat” qiladi, yaʼni yosh avlodni ilm olishga bor kuch-gʻayrati bilan kirishishi lozimligini, ota-onalar ham bu yoʻlda harakat qilishi muhimligini taʼkidlaydi. Ilmsiz va tarbiyasiz boʻlib ulgʻaygan farzandlar bora-bora jamiyatning ahvolini inqiroz koʻchasiga olib kelishi mumkinligini taʼkidlab oʻtadi.

Yana bir jadidchilik harakatining namoyondasi Abdurauf Fitrat "Tarbiyaga oid maslahatlar" asarida yoshlarni tarbiyalash, ularga ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni singdirish, jamiyatga foydali fuqarolar qilib tarbiyalash borasida o'zining fikrlarini bildirgan. U yoshlarni faqat ilm olishga emas, balki axloqiy jihatdan ham tarbiyalash zarurligini ko'rsatadi. Fitratning fikriga ko'ra, ta'lim jarayonida o'quvchilarga nafaqat nazariy bilimlar, balki hayotda to'g'ri yo'lni tanlay olish, yaxshi axloqiy fazilatlar ham o'rgatilishi kerak. Asarda ota-onalarning tarbiya jarayonidagi o'rni muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida ham so'z yuritiladi. Fitrat, ota-onalarga bolalarni tarbiyalashda ilmiy va axloqli bo'lishni maslahat beradi. Ular nafaqat bolalarni ilm-fan bilan, balki yaxshi axloq, to'g'ri jamiyatni anglash, vatanparvarlik kabi qadriyatlar bilan tarbiyalashlari kerakligini ta'kidlaydi.

Turkistondagi maorif tizimini isloh qilishni asosiy maqsad qilib olgan jadidlar yoshlarni milliy mustaqillik manfaatlarini himoya qila oladigan, iqtisodiy va siyosiy qaramlikdan chiqish muammolari bilan shug'ullanadilar, zamonaviy bilimga ega kadrlar bo'lishi kerakligini anglaganlar. Jadidlar xalqning madaniyat darajasini xalqaro saviyaga ko'tarishni orzu qilganlar, buning uchun esa yoshlarni Yevropaning eng yaxshi o'quv maskanlarida o'qitish zarur, deb hisoblaganlar. Bu borada ham Mahmudxoja Behbudiy "To'y va azaga sarflagan aqchalarimizni farzandlarimizning ilm olishiga, talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbulga va Rossiya dorilfunun va durulsaltanatlarig'a yuborilib, diniy va dunyoviy va zamonaviy odamlar yetishdurmoqg'a ishlatmog'imiz lozim" [3] deya ta'kidlab o'tgan.

Jadidlar o'z maktablari orqali yosh avlodga ilm va ta'lim-tarbiya berishdan tashqari, ularning ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, vatanparvarlikni, vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantirishni, jamiyat va davlat rivojiga daxldorlik tuyg'ularini singdirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yganlar. Maktablarda diniy bilim bilan bir qatorda, dunyoviy bilimlar ham o'qitilgan. Aniq fanlar, tabiiy fanlarni o'qitishga va ilm-fan texnikalari yutuqlaridan xabardor bo'lishga katta e'tibor qaratganlar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jadidchilik Turkiston yoshlarining milliy, madaniy- ijtimoiy uyg'onishda va ravnaqida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jadidlar o'z g'oya va maqsadlaridan har qanday qiyin vaziyatda ham voz kechmadilar. To'g'ri jadidchilik harakati uzoq yashamadi, jadidchilik namoyondalari qatag'on qilindilar. Lekin ularning g'oyalari va fikrlari hech qachon o'z qiymati va ahamiyatini yo'qotmaydi. Jadidlarning g'oyalari nafaqat 19-asr uchun, balki, hozirgi davr uchun ham juda ahamiyatlidir. Jadidlarning yozgan asarlaridan, ularning fikrlari va g'oyalari hozirgi kunda ham barchamizga dastur-ul amal hisoblanadi. Hozirgi kunda jadidlar qoldirgan meros yanada chuqur o'rganilmoqda va amaliy hayotimizga joriy qilinmoqda. Ta'lim tizimimizning turli bo'g'inlarida ham jadidlarning g'oya va mafkuralaridan foydalanilmoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'rgatilayotgan "Tarbiya" fanini o'qitishda jadidchilik harakati namoyondalarining g'oya va

qarashlari asosiy mezonlardan biridir. Jadidlar haqida ishlanayotgan videoroliklar, qo'shiqlar va kinofilmlar o'sib kelayotgan yosh avlodning dunyoqarashi, kreativ fikrlashi va tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Prezidentimiz SHavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Jadidlar g'oyasi Yangi O'zbekiston strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohang hisoblanadi" [4].

Albatta, Yangi O'zbekistonimizni barpo qilishda, uchinchi Renessansni qurishda asosiy kuch va tayanch bu o'sib kelayotgan yosh avloddir. Jadidchilik g'oyalari esa yosh avlodning fikrlashi, dunyoqarashi, rivojlanishi va ta'lim-tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy mezonlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nazarov. O'zbek falsafasi. Toshkent. 2003.
2. Oblomurodov N, Hazratqulov A va boshqalar. O'zbekiston tarixi. (o'quv qo'llanma) Toshkent 2011.
3. M. Abdurashidxonov. Xotiralarimdan (Jadidchilik tarixidan lavhalar). Sharq-2001. 108-109-betlar.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 22-dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishidagi nutqi.

MILLIKEN TAJRIBASI TATBIQLARI: ILMIY VA AMALIY YONDOSHUVLAR

Muzafarova Sevinch Muhammadovna

Buxoro Davlat Universiteti Fizika-matematika

va axborot texnologiyalari fakulteti talabasi

Annotatsiya: Milliken tajribasi, elektr zaryadining kvantlanganligini isbotlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy eksperimentlardan biridir. Ushbu tajriba orqali elektr zaryadi elementar zarracha (elektron) uchun o'ziga xos qiymatga ega ekanligi aniqlangan. Tadqiqot natijalari elektr zaryadining o'lchami va uning mikrotomoshabin yordamida kuzatilishi bo'yicha zamonaviy fizikaga katta hissa qo'shgan. Ushbu maqolada Milliken tajribasining ilmiy va amaliy tatbiqlari, uning natijalari va boshqa tadqiqotlar bilan solishtirilishi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, eksperimentning zamonaviy elektronika va kvant texnologiyalariga ta'siri ham tahlil qilinadi. Maqola natijalari olingan grafiklar, jadval va rasmlar yordamida taqdim etilgan.